

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna BREND POZITSİYALASH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloevich Jurayev YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI	77
Nasulloeva Oydiyoy Saidovna ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ	82
Палвонова Севара Бахромовна MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI	103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR	115
Asal Kadirova СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	125
Нигматова Сугдиена Жалолiddин кизи	



SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	131
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna	
O'taganov Fazliddin Isroil o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ	142
Эргашева Файёза Боходир кизи	
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ	146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна	
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI	154
Matrasulova Feruza Baxodirovna	
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA HORIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	159
Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich	
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	166
Мирзаева Дилдора Иномовна	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA)	174
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	183
Aslanova Dilnoza Fatilloevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHKILOT BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH METODOLOGIYASI	187
Raxmonova Nilufar Umedovna	
HUDUDIIY IQTISODIYOT TARKIBIIY O'ZGARISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA SANOATLASHUV, XIZMATLAR SEKTORI VA INVESTITSIYALARINING ROLI	196
Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi	
SOLIQ BAZASI TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI	201
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KORXONALARNING MOLIVAVIY MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	208
Atadjanova Sevinch Qurbonbayevna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQA TORTISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	214
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNI QO'LLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	222
I.R.Sabirjanova	
OPPORTUNITIES FOR UTILIZING TAX INCENTIVES GRANTED TO SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THEREGIONAL ECONOMY	228
Palvanbayev Umidbek Uktam o'g'li	
MINTAQAVIIY TURISTIK KLASTERLARNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: IQTISODIY SAMARADORLIK MODELII	233
Kazokova Dilnoza Bobirovna	
KORPORATIV BOSHQARUVNING QURILISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	238
G'iyosov Ilxom Karimovich	



O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TAHLILI	246
Xaitova Gulmira Matsalayevna	
SUV TEJOVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	253
Sangirova Umida Ravshanovna	
МЕТОДЫ СИСТЕМ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ И ПЛАНИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	259
Н. М. Эргашева	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	265
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISHNING O'RNI.....	271
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
ТЕНДЕНЦИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ТАДЖИКИСТАНА ЗА 35 ЛЕТ ГОСУДАРСТВЕННОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ	276
Икромни Нуриддин Киём	
Раҳматзода Далер Талбак	
YANGI O'ZBEKISTONDA GILAMCHILIK SANOATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI	283
Farog'at Xo'jabekova	
MINTAQADA AGROTURIZMNI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: XALQARO MODELLAR VA O'ZBEKISTON UCHUN INNOVATSION MEXANIZMLAR.....	288
Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li	
KICHIK BIZNESDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMI.....	294
Kabilova Shahnoza Jurayevna	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISH	301
Parpiboyeva Lobar Abdikomilovna	



SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISH

Parpiboyeva Lobar Abdikomilovna

Tashkent international university "Iqtisodiyot va moliya" kafedrası doktoranti (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalari va mobil ilovalardan foydalanish asosida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonida mobil banking, sun'iy intellektga asoslangan virtual yordamchilar, chatbotlar, biometrik identifikatsiya, mijozlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish, kredit skoringi, fribgarlik operatsiyalarini aniqlash hamda shaxsiylashtirilgan bank mahsulotlarini taklif etish imkoniyatlari o'rganilgan. O'zbekiston tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko'rsatkichlari tahlil qilinib, mobil texnologiyalarning chakana bank xizmatlari ommalashuvdagi o'rni baholangan. Tadqiqot natijasida sun'iy intellekt va mobil banking integratsiyasi xizmat ko'rsatish tezligi va qulayligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, mijozlarga individual yondashuvni kuchaytirish hamda banklarning raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omillaridan biri ekanligi asoslangan. Shuningdek, O'zbekiston tijorat banklarida AI asosidagi chakana xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: chakana bank xizmatlari, sun'iy intellekt, mobil banking, raqamli bank, raqamli transformatsiya, biometrik identifikatsiya, Face ID, chatbot, kredit skoringi, masofaviy bank xizmatlari, personalizatsiya, fintech.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты развития розничных банковских услуг на основе использования технологий искусственного интеллекта и мобильных приложений в условиях цифровой трансформации. В процессе цифровизации банковских услуг изучены возможности мобильного банкинга, виртуальных помощников на базе искусственного интеллекта, чат-ботов, биометрической идентификации, анализа поведения клиентов, кредитного скоринга, выявления мошеннических операций и предложения персонализированных банковских продуктов. Проанализированы показатели использования дистанционных банковских услуг в коммерческих банках Узбекистана, а также оценена роль мобильных технологий в популяризации розничных банковских услуг. В результате исследования обосновано, что интеграция искусственного интеллекта и мобильного банкинга является одним из важных факторов повышения скорости и удобства обслуживания, снижения операционных расходов, усиления индивидуального подхода к клиентам и обеспечения конкурентоспособности банков. Также разработаны научно-практические предложения по развитию розничных услуг на основе ИИ в коммерческих банках Узбекистана.

Ключевые слова: розничные банковские услуги, искусственный интеллект, мобильный банкинг, цифровой банк, цифровая трансформация, биометрическая идентификация, Face ID, чат-бот, кредитный скоринг, дистанционные банковские услуги, персонализация, финтех.

Abstract. This article investigates the theoretical and practical aspects of developing retail banking services based on the use of artificial intelligence technologies and mobile applications in the context of digital transformation. In the process of banking services digitalization, the opportunities of mobile banking, AI-based virtual assistants, chatbots, biometric identification, customer behavior analysis, credit scoring, fraud detection, and offering personalized banking products are studied. The indicators of remote banking services usage in commercial banks of Uzbekistan are analyzed, and the role of mobile technologies in popularizing retail banking services is assessed. As a result of the research, it is substantiated that the integration of artificial intelligence and mobile banking is one of the key factors in enhancing service speed and convenience, reducing operational costs, strengthening an individual approach to customers, and ensuring the competitiveness of banks. Furthermore, scientific and practical proposals have been developed for the development of AI-based retail services in commercial banks of Uzbekistan.

Keywords: retail banking services, artificial intelligence, mobile banking, digital bank, digital transformation, biometric identification, Face ID, chatbot, credit scoring, remote banking services, personalization, fintech.



KIRISH

Jahon moliya tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi tijorat banklarining an'anaviy faoliyat modelini sezilarli darajada transformatsiya qilmoqda. Ilgari xizmatlar, asosan, bank filiallari orqali ko'rsatilgan bo'lsa, hozirda hisobvaraqlarni boshqarish, to'lovlar, kredit olish, omonat ochish hamda valyuta ayirboshlash kabi amaliyotlarni mobil ilovalar orqali masofadan bajarish imkoniyati kengaymoqda.

Ushbu jarayonda sun'iy intellekt (Artificial Intelligence – AI) texnologiyalarining bank tizimiga integratsiyalashuvi alohida o'rin tutadi. Sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish, mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlarini aniqlash, kredit risklarini baholash, shubhali operatsiyalarni aniqlash hamda shaxsiylashtirilgan bank mahsulotlarini tavsiya etish imkonini beradi. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi.

Chakana bank xizmatlari segmentida sun'iy intellekt va mobil ilovalar integratsiyasi bank hamda mijoz o'rtasidagi munosabatlarning yangi modelini shakllantirmoqda. Zamonaviy mobil bank ilovasi oddiy to'lov vositasidan mijozning moliyaviy ehtiyojlarini aniqlaydigan va individual yechimlar taklif etadigan raqamli platformaga aylanmoqda.

O'zbekistonda ham bank xizmatlarini raqamlashtirish bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar sonining ortishi, mobil to'lovlar va biometrik identifikatsiya (Face ID) texnologiyalarining joriy etilishi yangi xizmat ko'rsatish modeliga o'tish uchun zarur texnologik zamin yaratmoqda.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — sun'iy intellekt va mobil ilovalarning chakana bank xizmatlaridagi rolini aniqlash, O'zbekiston tijorat banklaridagi raqamli tendensiyalarni baholash hamda AI asosidagi xizmatlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellekt texnologiyalari va mobil ilovalar asosida chakana bank xizmatlarini rivojlantirish masalalari so'nggi yillarda xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida muhim yo'nalishlardan biriga aylandi. Raqamli transformatsiyaning jadallashuvi natijasida chakana bank xizmatlarining an'anaviy shakllari mobil banking, sun'iy intellekt, mashinaviy o'rganish, biometrik identifikatsiya, chatbotlar va ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish texnologiyalari bilan uyg'unlashib bormoqda. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi.

P. Gomber, R. J. Kauffman, C. Parker va B. W. Weber (2018) moliyaviy xizmatlar sohasidagi raqamli transformatsiyani tadqiq etib, zamonaviy texnologiyalar banklarning an'anaviy biznes modellarini o'zgartirishi hamda yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmat ko'rsatish kanallarini shakllantirishini ta'kidlaydilar¹. Mualliflarning fikricha, raqamli moliyaviy xizmatlar mijoz va moliyaviy institut o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqib, xizmatlar tezligi va qulayligini oshiradi.

T. Puschmann (2017) FinTech va moliya sektorining raqamlashtirilishini o'rganib, moliyaviy xizmatlar transformatsiyasi nafaqat texnologik infratuzilmani, balki biznes modellari va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni ham tubdan o'zgartirishini qayd etadi². Muallif raqamli texnologiyalar natijasida moliyaviy xizmatlarning alohida jarayonlarga ajralishi va ularning yangi texnologik platformalarda qayta shakllanishiga alohida e'tibor qaratadi.

T. H. Davenport va R. Ronanki (2018) sun'iy intellektning biznes jarayonlaridagi amaliy imkoniyatlarini tahlil qilib, AI texnologiyalarini qo'llash yo'nalishlarini jarayonlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlardan kognitiv xulosalar chiqarish va mijozlar bilan aloqalarni takomillashtirish bilan bog'laydilar³. Ushbu yondashuv AI yordamida mijozlarning tranzaksiyon xatti-harakatlarini tahlil qilish, kredit risklarini baholash, firibgarlik holatlarini aniqlash va individual bank mahsulotlarini taklif qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

T. H. Davenport, A. Guha, D. Grewal va T. Bressgott (2020) AI texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash orqali mijozlar ehtiyojlarini chuqurroq tushunish va individual takliflarni shakllantirish imkoniyatini oshirishini ko'rsatadilar⁴. Bu ilmiy qarash chakana bank xizmatlari uchun juda muhim bo'lib, mobil ilovalar orqali shakllanadigan tranzaksiyon ma'lumotlar asosida mos kredit, omonat va boshqa moliyaviy mahsulotlarni tavsiya qilish imkonini beradi.

V. Venkatesh, J. Y. L. Thong va X. Xu (2012) tomonidan rivojlantirilgan UTAUT2 modelida iste'molchilarning yangi texnologiyalarni qabul qilishiga samaradorlikni kutish, foydalanish qulayligi, ijtimoiy ta'sir va boshqa

1 Gomber, P., Kauffman, R. J., Parker, C., & Weber, B. W. (2018). On the Fintech Revolution: Interpreting the Forces of Innovation, Disruption, and Transformation in Financial Services. *Journal of Management Information Systems*, 35(1), 220–265. DOI: 10.1080/07421222.2018.1440766.

2 Puschmann, T. (2017). Fintech. *Business & Information Systems Engineering*, 59, 69–76. DOI: 10.1007/s12599-017-0464-6.

3 Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). Artificial Intelligence for the Real World. *Harvard Business Review*, 96(1), 108–116.

4 Davenport, T., Guha, A., Grewal, D., & Bressgott, T. (2020). How Artificial Intelligence Will Change the Future of Marketing. *Journal of the Academy of Marketing Science*, 48, 24–42. DOI: 10.1007/s11747-019-00696-0.



omillar ta'sir qilishi asoslangan⁵. Mazkur nazariya mobil banking xizmatlarini o'rganishda muhim metodologik asos bo'lib, mijozning xizmatni qulay va ishonchli deb qabul qilishi uning amalda foydalanish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

A. A. Shaikh va H. Karjaluoto (2015) mobil banking bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni tizimli tahlil qilib, foydalanuvchilar qaroriga foydalilik, qulaylik, ishonch va xavfsizlik omillari ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar⁶. Ularning tadqiqoti mobil bank xizmatlarini rivojlantirishda faqat funksionallikni oshirish emas, balki raqamli kanalga bo'lgan ishonchni shakllantirish ham zarurligini ko'rsatadi.

M. A. Alalwan, Y. K. Dwivedi va N. P. Rana (2017) mobil bankingdan foydalanishga kutilayotgan samaradorlik, foydalanish imkoniyatlari va odat kabi omillar sezilarli ta'sir qilishini aniqlaganlar⁷. Ushbu natijalar mobil ilovalarni ishlab chiqishda qulay interfeys, tezkor operatsiyalar va kundalik ehtiyojlarga mos funksiyalarga ustuvorlik berish zarurligini ko'rsatadi.

M. T. M. Marous banklarda raqamli transformatsiyaning markazida mijoz tajribasi turishi kerakligini ta'kidlaydi⁸. Bu yondashuvga ko'ra, mobil ilova mijozning kundalik moliyaviy faoliyatini boshqaradigan raqamli platformaga aylanishi lozim. Sun'iy intellekt esa bunday platformada mijoz ehtiyojlarini prognoz qilish va real vaqt rejimida individual xizmatlarni shakllantirish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, dinamik tahlil, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking bank va to'lov tizimlariga oid statistik ma'lumotlari, tijorat banklarining ochiq ma'lumotlari, xalqaro moliya institutlari materiallari hamda raqamli banking va sun'iy intellekt masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiyaning asosiy ko'rinishlaridan biri masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko'lamining kengayishidir. Mobil ilovalar jismoniy shaxslar uchun bank xizmatlaridan foydalanishning eng qulay kanaliga aylanib, filialga tashrif buyurish ehtiyojini kamaytirmoqda.

Markaziy bank ma'lumotlari tijorat banklarida masofaviy xizmatlardan foydalanuvchi jismoniy shaxslar soni bo'yicha farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu holat banklarning mijozlar bazasi, raqamli strategiyasi, mobil ilovalarning funksional imkoniyatlari hamda masofaviy xizmatlarni ommalashtirish darajasi bilan bog'liqdir (1-jadval).

1-jadval
Ayrim tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi
jismoniy shaxslar soni (2025-yil 1-iyul holatiga)⁹

Tijorat banki	Jismoniy shaxslar, kishi
Xalq banki	8 061 351
Aloqabank	5 887 676
O'zsanoatqurilishbank	5 538 236
Ipoteka-bank	4 425 403
Ipak Yo'li banki	4 024 804
Agrobank	3 699 326
Milliy bank	2 964 831
Hamkorbank	2 446 467
Mikrokreditbank	1 890 210
Kapitalbank	1 822 885

5 Venkatesh, V., Thong, J. Y. L., & Xu, X. (2012). Consumer Acceptance and Use of Information Technology: Extending the Unified Theory of Acceptance and Use of Technology. *MIS Quarterly*, 36(1), 157–178. DOI: 10.2307/41410412.

6 Shaikh, A. A., & Karjaluoto, H. (2015). Mobile Banking Adoption: A Literature Review. *Telematics and Informatics*, 32(1), 129–142. DOI: 10.1016/j.tele.2014.05.003.

7 Alalwan, A. A., Dwivedi, Y. K., & Rana, N. P. (2017). Factors Influencing Adoption of Mobile Banking by Jordanian Bank Customers: Extending UTAUT2 with Trust. *International Journal of Information Management*, 37(3), 99–110. DOI: 10.1016/j.ijinfomgt.2017.01.002.

8 Rai, A. (2020). Explainable AI: From Black Box to Glass Box. *Journal of the Academy of Marketing Science*, 48, 137–141. DOI: 10.1007/s11747-019-00710-5.

9 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



Jadval ma'lumotlari O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko'lami sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, Xalq bankida mazkur ko'rsatkich 8,06 mln kishidan oshgan. Shuningdek, Aloqabankda 5,89 mln, O'zsanoatqurilishbankda 5,54 mln hamda Ipoteka-bankda 4,43 mln jismoniy shaxs masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi sifatida ro'yxatga olingan.

Ushbu ko'rsatkichlar chakana bank xizmatlarini ko'rsatishda raqamli kanallarning strategik ahamiyati ortib borayotganini anglatadi. Biroq ro'yxatdan o'tgan masofaviy xizmat foydalanuvchilari sonini mobil ilovaning faol foydalanuvchilari ko'rsatkichiga tenglashtirib bo'lmaydi. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi.

Raqamli identifikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi chakana bank xizmatlarini masofadan ko'rsatish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Biometrik identifikatsiya mijoz shaxsini masofadan tasdiqlash, xizmatlarni bank filialiga tashrif buyurmasdan olish va raqamli *onboarding* jarayonini tezlashtirish imkonini yaratadi.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga 28 ta tijorat banki va 15 ta to'lov tashkiloti *Face ID* texnologiyasidan foydalangan. Mobil ilovalar orqali raqamli identifikatsiyadan o'tgan mijozlar soni 12,2 mln kishiga yetib, yil davomida 5,4 mln kishiga ko'paygan.

Mazkur ko'rsatkichlar O'zbekistonda mobil banking ekotizimini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan raqamli identifikatsiya infratuzilmasi izchil kengayib borayotganidan dalolat beradi (1-rasm).

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2020–2024 o'sish sur'ati
 Mobil banking foydalanuvchilari soni (mln kishi)	8,1	11,9	17,6	24,3	30,2	 +273,1%
 Bajarilgan operatsiyalar soni (mln ta)	346	567	892	1 327	1 872	 +441,0%
 Operatsiyalar hajmi (trln so'm)	57,8	89,4	145,1	231,4	353,6	 +511,4%
 Bank xizmatlaridagi mobil kanallarning ulushi (%)	42,1	56,8	67,4	78,1	84,3	 +42,2 p.p.
 1 foydalanuvchiga to'g'ri keladigan operatsiyalar soni (yiliga, ta)	42,7	47,6	50,7	54,6	62,0	 +45,2%
 Mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan to'lovlar ulushi (%)	68,5	72,1	76,3	81,7	87,6	 +19,1 p.p.
 Raqamli (masofaviy) ro'yxatdan o'tgan mijozlar soni (mln kishi)	3,2	5,6	9,1	14,8	20,5	 +540,6%
 30,2 mln mobil banking foydalanuvchilari (2024-yil)	 1 872 mln operatsiyalar soni (2024-yil)					 353,6 trln so'm operatsiyalar hajmi (2024-yil)
					 84,3% bank xizmatlarida mobil kanallarning ulushi (2024-yil)	
Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.						Izoh: o'sish sur'ati 2020–2024-yillar ko'rsatkichlari taqqoslanishi asosida hisoblangan.

1-rasm. Sun'iy intellekt texnologiyalarining chakana bank xizmatlarida qo'llanilish yo'nalishlari¹⁰

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektning chakana bankingdagi iqtisodiy samarasi faqat xizmatlarni avtomatlashtirish bilan chegaralanmaydi. AI texnologiyalarining mobil ilovalarga integratsiyalashuvi natijasida bank mijozga nisbatan reaktiv xizmat modelidan proaktiv xizmat modeliga o'tishi mumkin. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi.

An'anaviy modelda mijoz bank mahsulotiga ehtiyoj sezganidan so'ng bankka murojaat qiladi. AI asosidagi modelda esa algoritmlar mijozning moliyaviy xatti-harakatlarini tahlil qilib, ehtiyoj yuzaga kelishidan oldin tegishli mahsulot yoki xizmatni taklif etadi.

Masalan, mijozning hisobvarag'iga muntazam ish haqi tushishi, xarajatlar tarkibi, jamg'arma qoldig'i va shartnomaviy majburiyatlari tahlili asosida mobil ilova individual kredit limiti yoki jamg'arma mahsulotini taklif qilishi mumkin. Bunday yondashuv bankning cross-selling imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga mijoz uchun xizmatlarning dolzarbligini oshiradi (2-jadval).

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



Mezon	An'anaviy mobil banking	AI asosidagi mobil banking
Xizmat modeli	Mijoz tashabbusiga asoslangan	Proaktiv
Mahsulot taklifi	Standart	Individual
Kreditni baholash	Standart skoring	Dinamik AI-skoring
Mijoz bilan aloqa	Call-markaz / operator	AI-assistent + operator
Firibgarlik (Fraud) monitoringi	Qoidalar asosida	Real vaqtdagi ML (mashinaviy o'rganish) tahlili
Moliyaviy maslahat	Cheklangan	Individual tavsiyalar
Mijoz ehtiyojini aniqlash	So'rov asosida	Bashoratli tahlil (<i>Predictive analytics</i>)
Xizmat ko'rsatish vaqti	Ayrim xizmatlarda cheklangan	Ko'plab xizmatlarda 24/7 rejimida

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston banklari uchun mobil ilovani oddiy operatsion kanal sifatida emas, balki "AI-powered digital banking ecosystem" sifatida shakllantirish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Taklif etilayotgan model quyidagi ko'rinishda ifodalanishi mumkin (2-rasm):



2-rasm. AI asosidagi mobil bank xizmati modeli¹¹

Mazkur modelning muhim xususiyati qayta aloqa (feedback loop) mexanizmining mavjudligidir. Ya'ni mijozning AI tomonidan taklif etilgan mahsulotga munosabati keyingi tavsiyalarni yanada aniqroq shakllantirish uchun yangi ma'lumot sifatida qayta ishlanadi. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi.

Shu bilan birga, sun'iy intellektni chakana bankingga joriy qilish qator xatarlarni ham yuzaga keltiradi. Mijozlarning shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarini muhofaza qilish, algoritmik qarorlarning shaffofligini ta'minlash, kredit skoringidagi ehtimoliy tarfakashlik (diskriminatsiya), kiberxavfsizlik va noto'g'ri AI tavsiyalari shular jumlasidandir. Shu sababli AI asosidagi bank xizmatlarining rivojlanishi texnologik innovatsiyalar bilan bir qatorda samarali risk-menejment va inson nazorati (human-in-the-loop) tizimiga tayanishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalari va mobil ilovalar chakana bank xizmatlarini transformatsiya qiluvchi muhim omillardan biriga aylanayotganligini ko'rsatadi. Mobil banking mijoz va bank o'rtasidagi asosiy masofaviy aloqa kanalini shakllantirayotgan bo'lsa, sun'iy intellekt ushbu kanal orqali ko'rsatiladigan xizmatlarning tezligi, individuallashuvi va samaradorligini oshirish imkonini beradi. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi.

11 Muallif tomonidan tuzilgan.



O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko'lamining kengayishi va biometrik identifikatsiya tizimlarining rivojlanishi AI asosidagi yangi chakana bank mahsulotlarini joriy qilish uchun zarur texnologik baza shakllanayotganligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Tijorat banklari mobil ilovalarida mijozning daromadlari, xarajatlari, to'lovlari hamda jamg'armalarini tahlil qiluvchi va individual moliyaviy tavsiyalar beruvchi "AI-based Personal Banking Assistant" (AI asosidagi shaxsiy bank yordamchisi) tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Kredit qarorlarini qabul qilishda an'anaviy kredit tarixidan tashqari mijozning bankdagi tranzaksion faoliyati hamda boshqa qonuniy va relevant moliyaviy indikatorlardan foydalanadigan dinamik AI kredit skoring tizimini rivojlantirish lozim; bunda algoritmik qarorlarning tushuntiriluvchanligi va adolatligi ta'minlanishi zarur.

3. AI algoritmlari mijozning moliyaviy xatti-harakatlarini tahlil qilib, uning uchun mos bo'lgan kredit, omonat, karta va boshqa bank mahsulotlarini real vaqt rejimida tavsiya qiluvchi "Next Best Offer" mexanizmini mobil bankingga integratsiya qilish lozim.

4. Mijozning odatiy operatsiyalaridan keskin farq qiladigan tranzaksiyalarni real vaqt rejimida aniqlash, risk darajasini avtomatik baholash va yuqori riskli operatsiyalarda qo'shimcha autentifikatsiyani ishga tushirish mexanizmini rivojlantirish orqali AI asosidagi fraud monitoring tizimini kuchaytirish zarur.

5. Mobil ilovalarda mijoz xarajatlarini avtomatik kategoriyalash, oylik budjet tuzish, ortiqcha xarajatlarni aniqlash, jamg'arma maqsadlarini belgilash hamda individual moliyaviy tavsiyalar berish funksiyalarini qamrab oluvchi "Smart Personal Finance Management" modulini yaratish taklif etiladi.

6. Mobil ilovaning faol foydalanuvchilari ulushi, AI orqali hal qilingan murojaatlar hajmi, raqamli kreditlarning tasdiqlanish vaqti, mobil kanaldagi mahsulot konversiyasi, firibgarlikning oldini olish ko'rsatkichi hamda mijozlar qoniqish darajasini asosiy indikator sifatida belgilovchi KPI tizimini shakllantirish lozim.

7. Banklarda sun'iy intellekt algoritmlarining shaffofligi, ma'lumotlarni muhofaza qilish, model riskini boshqarish, algoritmik tarafkashlikning oldini olish hamda inson nazoratini ta'minlash bo'yicha ichki standartlarni qamrab oluvchi AI Governance (AI boshqaruvi) tizimini shakllantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gomber, P., Kauffman, R. J., Parker, C., & Weber, B. W. (2018). On the Fintech Revolution: Interpreting the Forces of Innovation, Disruption, and Transformation in Financial Services. *Journal of Management Information Systems*, 35(1), 220–265. DOI: 10.1080/07421222.2018.1440766.
2. Puschmann, T. (2017). Fintech. *Business & Information Systems Engineering*, 59, 69–76. DOI: 10.1007/s12599-017-0464-6.
3. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). Artificial Intelligence for the Real World. *Harvard Business Review*, 96(1), 108–116.
4. Davenport, T., Guha, A., Grewal, D., & Bressgott, T. (2020). How Artificial Intelligence Will Change the Future of Marketing. *Journal of the Academy of Marketing Science*, 48, 24–42. DOI: 10.1007/s11747-019-00696-0.
5. Venkatesh, V., Thong, J. Y. L., & Xu, X. (2012). Consumer Acceptance and Use of Information Technology: Extending the Unified Theory of Acceptance and Use of Technology. *MIS Quarterly*, 36(1), 157–178. DOI: 10.2307/41410412.
6. Shaikh, A. A., & Karjaluo, H. (2015). Mobile Banking Adoption: A Literature Review. *Telematics and Informatics*, 32(1), 129–142. DOI: 10.1016/j.tele.2014.05.003.
7. Alalwan, A. A., Dwivedi, Y. K., & Rana, N. P. (2017). Factors Influencing Adoption of Mobile Banking by Jordanian Bank Customers: Extending UTAUT2 with Trust. *International Journal of Information Management*, 37(3), 99–110. DOI: 10.1016/j.ijinfomgt.2017.01.002.
8. Rai, A. (2020). Explainable AI: From Black Box to Glass Box. *Journal of the Academy of Marketing Science*, 48, 137–141. DOI: 10.1007/s11747-019-00710-5.
9. Huang, M. H., & Rust, R. T. (2018). Artificial Intelligence in Service. *Journal of Service Research*, 21(2), 155–172. DOI: 10.1177/1094670517752459.
10. Huang, M. H., & Rust, R. T. (2021). A Strategic Framework for Artificial Intelligence in Marketing. *Journal of the Academy of Marketing Science*, 49, 30–50. DOI: 10.1007/s11747-020-00749-9.
11. Belanche, D., Casaló, L. V., & Flavián, C. (2019). Artificial Intelligence in FinTech: Understanding Robo-Advisors Adoption among Customers. *Industrial Management & Data Systems*, 119(7), 1411–1430. DOI: 10.1108/IMDS-08-2018-0368.
12. Dwivedi, Y. K., Hughes, L., Ismagilova, E., et al. (2021). Artificial Intelligence (AI): Multidisciplinary Perspectives on Emerging Challenges, Opportunities, and Agenda for Research, Practice and Policy. *International Journal of Information Management*, 57, Article 101994. DOI: 10.1016/j.ijinfomgt.2019.08.002.



13. Kshetri, N. (2020). Artificial Intelligence in Developing Countries. IT Professional, 22(4), 63–68.
14. World Bank. (2022). The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. Washington, DC: World Bank.
15. Bank for International Settlements. (2024). Annual Economic Report 2024. Basel: Bank for International Settlements.
16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil uchun yillik hisoboti. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
18. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). To'lov tizimi ko'rsatkichlari (2025–2026-yillar). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
19. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Bank kartalari, terminallar, bankomat va infokiosklar bo'yicha statistik ma'lumotlar (2025–2026-yillar). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
20. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Tijorat banklarining asosiy ko'rsatkichlari va bank tizimiga oid statistik ma'lumotlar (2025–2026-yillar). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>